Bolalar Muqaddas Kitobi

Tasvirlab beradi

Quduq oldidagi Ayol

...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan illustrasiya qilingan:
Lazarus; Alastair Paterson

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
Ruth Klassen

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org

©2022 Bible for Children, Inc.
Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.

Iso va Uning shogirdlari Samariya o'lkasi orqali o'tib ketishayotgan edi. Ular Sixar degan shaharga yetib kelishdi.



U yerda bir quduq bor edi va Sixarliklar ichimlik suvini o'sha yerdan olishardi. Uzoq o'tmishda bu quduqni Isroil xalqining otasi bo'lmish Yoqub qazigan edi.



Erta tush vaqti ajabmaski kun quyoshli va issiq edi. Shogirdlari ovqat sotib olish uchun Sixarga ketisharkan, holdan toygan Iso quduq yonida o'tirdi.

Iso yolg'iz edi - lekin bu uzoqqa cho'zilmadi. Sixar shahrida yashovchi bir ayol suv olish uchun kelgandi.
"Menga ichgani suv ber," dedi Iso unga.



Ayol hayron bo'ldi. “Qanday qilib yahudiy ekansiz, samariyalik ayoldan ichimlik so’rayapsiz?” dedi u. O'sha kunlarda sahudiylar samariyaliklar bilan hech ham aloqasi qilishmasdi!

Iso: “Agar sen Mening kimligimni bilganingda, mendan hayotbaxsh suv so'ragan bo'larding”, deganida ayol yanada hayron bo'lgandir.



Ayol Isoga dedi:
“Taqsir, sizda suv olish uchun hech narsa yo'q, quduq esa chuqur. Shunday ekan siz bu hayotbaxsh suvni qayerdan olasiz? Quduqni bizga bergan otamiz Yoqubdan ham buyukroqmisiz …?”

Iso ayolga: “Kim bu suvdan ichsa, yana chanqaydi”, dedi. “Ammo kimki Men beradigan suvdan ichsa, hech qachon chanqamaydi. Men beradigan suv... unda buloqqa aylanib, abadiy hayot sari jo’shib oqadi.” “Taqsir, menga mana bu suvni bering...” dedi ayol.

Iso ayoldan borib erini chaqirib kelishni so'radi. "Mening erim yo'q", deb javob berdi ayol. "Sening besh nafar ering bo'lgan," dedi Iso. "Hozirgisi ham ering emas."

Ayol Isoning payg'ambar ekanligini tushunib yetdi. U Xudoga qayerda topinish kerakligi haqida Iso bilan baxs qilishga urindi. Quddusda topinish kerakmi, yoki samariyaliklarning muqaddas tog’idami? Iso unga, haqiqiy topinuvchilar Otaga ruhda va haqiqatda topinadilar, deb uqtirdi.



“Men Masih kelishini bilaman,” dedi ayol Isoga. “U kelganda, hamma narsani bizga tushuntiradi.” Iso unga, “O’sha Menman. Sen bilan gaplashib turibman” dedi. Shu payt shogirdlar kelib qolishdi. Ayol qimmatbaho ko’zasini quduq yonida qoldirib, shaharga qaytib ketdi.





“Yuringlar, bir Odamni ko’ringlar. U mening qilgan hamma ishlarimni aytib berdi!” dedi ayol Sixarliklarga. “O'sha Masih emasmikin?” Odamlar shahardan chiqib, Isoni o’z ko’zlari bilan ko’rishga yo’l olishdi.

Bu orada shogirdlar Isoni ovqat yeyishga chaqirishdi. Lekin Iso ularga Shunday dedi, "Mening ovqatim – Meni Yuborganning irodasini bajarish va Uning ishini tugatishdir." Uning ishi odamlarni Xudoga olib kelish edi.

Ko'p samariyaliklar o'sha ayolning so'zi tufayli Isoga ishondilar. Ular Isodan ular bilan qolishini so'rashdi va Iso u yerda ikki kun qoldi. Yana ko'plar Isoning so'zi tufayli imon keltirdilar. Ular, "... biz o'zimiz eshitdik va endi bilamizki, bu haqiqatan ham dunyoning Najotkori Masihdir".



Quduq oldidagi Ayol

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

…dan topilgan

Yuhanno 4-bob

“Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar.”
Zabur 119:130

Hikoya tugadi

Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Xudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Xudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Xudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun xochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Xudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Xudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening farzanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Xudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16